

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti rektori



X.B. Yunusov

2024-yil "02" 08

**KAVSHOVCHI HAYVONLAR KASALLIKLARI DIAGNOSTIKASI  
VA TERAPIYASI**

**FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya  
**Ta'lim sohasi:** 840000 – Veterinariya  
**Mutaxassislik:** 70840101 – Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash

Fan/modul kodi KHKDT1108		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECS – Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi	120		120	240
2.	I. Fanning mazmuni				
<p>Fanni o'qitishdan maqsad - "Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi" fanini o'qitishdan maqsad - talabalarda kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklarining turlari, tarqalishi, iqtisodiy zarari, sabablari va kechish xususiyatlarini aniqlash, ilmiy asoslangan ertachi tashxis qo'yish hamda davolash va oldini olish usullarini qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklarining turlari, tarqalishi, iqtisodiy zarari, kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi, simptom va sindromlari, tashxis qo'yishda informativ ma'lumot beruvchi gematologik testlarning ahamiyati hamda davolash va oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullarini uzviylik va uzluksizlikda o'rgatish, talabalarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p>					
<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi faniga kirish. Kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklarini o'rganish tartibi.</b></p> <p>Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi fanining ta'rifi, tarixi, maqsadi va vazifalari. Kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklarining tasnifi va o'rganilish tartibi. Kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklari umumiy profilaktikasi. Organizm va tashqi muhit aloqadorligi umumbiologik qonuni - kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklari umumiy profilaktikasining nazariy asosi.</p> <p><b>2-mavzu. Yirik va mayda shoxli hayvonlarni dispanserlashning ilmiy asoslari.</b></p> <p>O'zbekistonning ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari sharoitidagi mahsuldor qoramollar va sovliqlarni dispanserlash natijalarining tahlili. Oziqa to'yimliliği kartogrammasi. Poda sindromatikasi. Klinik status. Modda almashinuvi darajasining kartogrammalari. Dispanserlash natijalari asosida asosiy ichki yuqumsiz kasalliklarni ertachi aniqlash va guruhli oldini olishga doir kafedra</p>					



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "70840101 - Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash" mutaxassisligi uchun "Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi" fanidan tayyorlangan Dasturga**

#### **T A Q R I Z**


"O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 5-maydagi PQ-2959-son, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2022-yil 31-martdagi PQ-187-sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qororlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida o'quv rejalari va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, kadrlar iste'molchilari hamda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish hamda amaliyot uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning bilim va ko'nikmalarini tubdan shakllantirish belgilangan.

Kredit-modul tizimiga asoslangan mazkur fan dasturida eng avvalo modulning kodi, o'quv yili, qaysi semestrda o'tilishi, kredit miqdori, auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim va jami soatlarda aks ettirilgan, fanning mazmuni, asosiy nazariy qism, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, fan o'qitilishining natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari, kreditlar olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati kiritilgan.

Dasturning asosiy qismida fanning nazariy qismi mazmuni, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar, amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari, mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni keltirilgan bo'lib, kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklarining sabablari, rivojlanish mexanizmi, simptom va sindromlari, patologoanatomik o'zgarishlari, tashxisi va qiyosiy tashxisi hamda davolash va oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullari bayon etilgan va mavzularning ketma-ketligiga e'tibor berilgan.

"Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi" fanidan fan dasturi kredit-modul tizimiga asoslangan Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari, O'quv rejasiga muvofiq tayyorlanganligi, uslubiy jihatdan to'g'ri tayyorlanganligi, hozirgi kundagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishini inobatga olib, uni tasdiqlashga va o'quv jarayoniga joriy etishga tavsiya qilaman.

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti,  
4-ichki kasalliklar kafedrası  
katta o'qituvchisi, PhD**



olimlari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar.

**3-mavzu. Kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklari umumiy terapiyasi.**

Davolash usullari: etiotrop, patogenetik, vikar, simptomatik, umumiy stimullovchi, fizio – va diyetoterapiya. Kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklarini davolashning eng zamonaviy usullari: to'qima terapiyasi, biologik faol moddalar bilan davolash. Davolashda yorug'lik nurlari va yelektr tokidan foydalanish. Sun'iy yorug'lik va elektro terapevtik manbalardan foydalanish tartib qoidalar. Terapevtik texnika usullari: dori vositalarini organizmga yuborish; asosiy diagnostik va terapevtik muolajalar.

**4-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda yurak va qon tomirlar tizimi kasalliklariga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari.**

Kavshovchi hayvonlarda perikarditlarga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda miokarditlarga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda endokarditlarga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda yurak nuqsonlariga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda zamonaviy magnitli diagnostika usullaridan foydalanishning ilmiy asoslari.

**5-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda yurak va qon tomirlar tizimi kasalliklarini davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.**

Kavshovchi hayvonlarda yurak va qon tomirlar tizimi kasalliklarining tasnifi va sindromlari. Kavshovchi hayvonlarda perikarditning ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda perikarditning tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda miokarditning ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda miokarditning tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

**6-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda yurak va qon tomirlar tizimi kasalliklarini davolash va oldini olishning ilmiy asoslari (davomi).**

Kavshovchi hayvonlarda endokarditning ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda endokarditning tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Yurak nuqsonlarining sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Yurak nuqsonlarining tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Zamonaviy EKG tahlili.

**7-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda nafas tizimi kasalliklariga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari.**

Kavshovchi hayvonlarda yuqori nafas yo'llarining kasalliklariga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda o'pka kasalliklariga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda plevra kasalliklariga tashxis qo'yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda zamonaviy aspiratsion va rentgen tashxisi usullaridan foydalanishning ilmiy asoslari.

**8-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda nafas tizimi kasalliklarini davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.**



Kavshovchi hayvonlarda yuqori nafas yo'llarining kasalliklarini davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda o'pka kasalliklarini davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda plevra kasalliklarini davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda zamonaviy pulmonoterapevtik muolajalar (O'SV va b.lar)dan foydalanishning ilmiy asoslari.

**9-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda stomatitlarga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.**

Hayvonlarda kataral stomatitga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Yirik shoxli hayvonlarda qilov stomatitiga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Otlarda tanglay stomatitiga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Yirik shoxli hayvonlarda aftoz stomatitga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Hayvonlarda yuqumli follikulyar stomatitga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

**10-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda oshqozon oldi bo'limlari kasalliklariga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.**

Oshqozon oldi bo'limlari gipo- va atoniyasiga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Katta qorin pareziga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. O'tkir timpaniyaga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Travmatik retikulit va retikulooperitonitga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

**11-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda me'da va ichaklarning kasalliklariga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.**

Kavshovchi hayvonlarda shirdonning yallig'lanishiga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda shirdon yarasiga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda gastroyenteritga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda gastroenterokolitga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

**12-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda jigar kasalliklariga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.**

Jigarning funksiyalari va jigar kasalliklarining sindromlari. O'tkir parenximatoz hepatitga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Jigar distrofiyasiga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Jigar sirroziga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. O't-tosh kasalligiga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

**13-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda ayirish tizimi kasalliklariga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.**

Kavshovchi hayvonlarda ayirish tizimi kasalliklarining tarqalishi va iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari. Kavshovchi hayvonlarda nefritga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda nefroz va nefrosklerozga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda piyelonefritga tashxis qo'yish, davolash va oldini

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "70840101 - Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash" mutaxassisligi uchun "Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi" fanidan tayyorlangan Dasturga

## TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi PQ-2959-sonli "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2022-yil 31-martdagi PQ-187-sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qororlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida o'quv rejalar va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, kadrlar iste'molchilari hamda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish hamda amaliyot uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning bilim va ko'nikmalarini tubdan shakllantirish belgilangan.

Dastur 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasi, 840000 - Veterinariya ta'lim sohasi, 70840101 – Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash mutaxassisligi bo'yicha «Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi» fanidan tayyorlangan bo'lib, uning tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari ro'yxati ko'rsatilgan.

Dasturning asosiy qismida «Kavshovchi hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va terapiyasi» fanining nazariy mashg'ulotlari mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, kavshovchi hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklarining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi, simptom va sindromlari, patologoanatomik o'zgarishlari, tashxisi va qiyosiy tashxisi hamda davolash va oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullari kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o'z aksini topgan. Fandan amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar hamda va mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni, tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari bayon etilgan.

Ushbu fan dasturi kredit-modul tizimiga asoslangan Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari, O'quv rejasiga muvofiq tayyorlanganligi, uslubiy jihatdan to'g'ri tayyorlanganligi hamda hozirgi kundagi me'yoriy hujjatlariga mos kelishini inobatga olib, tavsiya qilingan.



Direktori, v.f.d., professor

B.A.Elmuradov

	<p>rentgenologiyasi. Darslik. Toshkent, Sino-standart, 2019.</p> <p>8. Бакиров Б.Б. Хайвонларнинг ички юкумсиз касалликлари. Уқув қўлланма. Самарқанд, “Оптим прінт плус”, 2015.</p> <p>9. Bradford P.Smith, David C. Van Metre, Nicola Pusterla. Large Animal Internal Medicine. Sixth Edition. ELSEVIER. Printed in the United States of America, 2020 by.</p> <p><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.</p> <p>2. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari Ma’lumotlari milliy bazasi.</p> <p>3. <a href="http://www.zivonet.uz">www.zivonet.uz</a>.</p> <p>4. <a href="http://www.veterinariya.medsinasi.uz">www.veterinariya.medsinasi.uz</a>.</p> <p>5. <a href="mailto:www.sea@mail.net21.ru">www.sea@mail.net21.ru</a>.</p> <p>6. <a href="mailto:www.veterinary@actavis.ru">www.veterinary@actavis.ru</a>.</p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil “2”-avgustdagi “12-sonli bayoni bilan maqullangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ullar:</b></p> <p>Q.Norboyev – SamDVMChBU, “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrası professori, veterinariya fanlari doktori.</p> <p>B.Bakirov – SamDVMChBU, “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrası professori, veterinariya fanlari doktori.</p> <p>N.B.Ro‘ziqulov – SamDVMChBU, “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrası mudiri, veterinariya fanlari nomzodi, dotsent.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>B.A.Elmuradov – VITI direktori, v.f.d., professor.</p> <p>T.A.Oqboyev – Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 4-ichki kasalliklar kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD</p>

	<p>olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>14-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda siydik yo‘llari kasalliklariga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</b></p> <p>Kavshovchi hayvonlarda piyelitga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda urotsistitga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Siydik pufagining kasalliklariga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Yirik shohli hayvonlar surunkali gematuriyasiga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>15-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda qon tizimi kasalliklariga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</b></p> <p>Gemopoyez to‘g‘risidagi nazariyalar. Postgemorragik kamqonlikka tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Gemolitik kamqonlikka tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Gipoplastik va aplastik kamqonliklarga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>16-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda modda almashinuvining buzilishlariga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</b></p> <p>Kavshovchi hayvonlarda modda almashinuvi buzilishlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Kavshovchi hayvonlarda modda almashinuvi buzilishlarining kelib chiqish sabablari. Kavshovchi hayvonlarda ketozning ta‘rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o‘zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda ketozning tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>17-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda modda almashinuvining buzilishlariga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari (davomi).</b></p> <p>Bug‘oz sovliqlar ketonuriyasining ta‘rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o‘zgarishlari. Bug‘oz sovliqlar ketonuriyasining tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda alimentar distrofiyaning ta‘rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o‘zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda alimentar distrofiyaning tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>18-mavzu. Kavshovchi hayvonlarda mineral moddalar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan kasalliklar.</b></p> <p>Kavshovchi hayvonlarda mineral moddalar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan osteodistrofiya (alimentar, ikkilamchi va enzootik ostodistrofiya)ga tashxis qo‘yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda mineral moddalar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan osteodistrofiya (alimentar, ikkilamchi va enzootik ostodistrofiya)ni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda gipomagniyemik titaniya (yaylov tetaniyasi)ga tashxis qo‘yishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda gipomagniyemik titaniya (yaylov tetaniyasi)ni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>19-mavzu. Enzootik kasalliklar.</b></p> <p>Biogeokimyoviy hududlar to‘g‘risida tushuncha. Kavshovchi hayvonlarda</p>
--	--



<p>gipokabaltozning ta'rifi, sabablari va rivojlanishi. Kavshovchi hayvonlarda gipokabaltozning klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlari va tashxisi. Kavshovchi hayvonlarda gipokabaltozni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>20-mavzu. Enzootik kasalliklar (davomi).</b></p> <p>Kavshovchi hayvonlarda gipokuporozning ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda gipokuporozning tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda yod yetishmovchiligining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda yod yetishmovchiligining tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>21-mavzu. Gipovitaminozlar.</b></p> <p>Gipovitaminozlar, ularning ularning turlari va tarqalish darajasi. Kavshovchi hayvonlarda A gipovitamin (retinol yetishmovchiligi)ning ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda A gipovitaminning tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Kavshovchi hayvonlarda C gipovitaminning ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda C gipovitaminning tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>22-mavzu. Gipovitaminozlar (davomi).</b></p> <p>Kavshovchi hayvonlarda B-guruhi gipovitamin (B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>12</sub>-gipovitamin)ning ta'rifi, sabablari va rivojlanish mexanizmi. Kavshovchi hayvonlarda B-guruhi gipovitaminlarining klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Kavshovchi hayvonlarda B-guruhi gipovitaminlarining tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Vitaminli preparatlar va ularni ishlatish tartibi.</p> <p><b>23-mavzu. Oziqa toksikozlari.</b></p> <p>Zaharlanishlarning turlari va iqtisodiy zarari, tasnifi va sindromlari. Trixodesmotoksikozga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Geliotroptoksikozga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Ayiqtovonlilardan zaharlanishlarga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Gossipoltoksikozga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>24-mavzu. Asab tizimining kasalliklariga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</b></p> <p>Asab tizimi kasalliklarining turlari, tasnifi va sindromlari. Markaziy asab tizimi kasalliklari. Bosh miyaning chayqalishi va lat yeyishi. Bosh miya anemiyasi va giperemiyasi. Oftob urishi va issiq eltishi (kasalliklarning ta'rifi, sabablari, rivojlanish mexanizmi, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlari, tashxisi va qiyosiy tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari).</p> <p><b>25-mavzu. Asab tizimining kasalliklariga tashxis qo'yish, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari (davomi).</b></p> <p>Miya istisqosi. Orqa miya va uning paradarining yallig'lanishi. Stresslar. Kasalliklarning ta'rifi, sabablari, rivojlanish mexanizmi, klinik belgilari,</p>	
--	--

	<p><b>ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>to'liq klinik hamda zamonaviy laborator tekshirishlar o'tkazish orqalikavsh qaytaruvchi hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklariga to'g'ri tashxis qo'yish; kasal hayvonlardan qon, siydik, sut va boshqa namunalari olish va ularni laborator tekshirishlardan o'tkazish; kasal hayvonlarni davolashda dori vositalarini to'g'ri tanlash, terapevtik texnika va fizioterapiya usullarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</li> </ul>
<p><b>4.</b></p>	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ma'ruzalar;</li> <li>interfaol keys-stadilar;</li> <li>seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>guruhlarda ishlash;</li> <li>taqdimotlarni qilish;</li> <li>individual loyihalar;</li> <li>jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p><b>5.</b></p>	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
<p><b>6.</b></p>	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. М.: Изд. ООО «Аквариум-Принт», 2005.</li> <li>Практикум по внутренним болезням животных / Под общ. ред. Г. Г. Щербакова, А. В. Яшина, А. П. Курдеко, К. Х. Мурзагулова: Учебник. — СПб.: Издательство «Лань», 2021.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Ma'naviyat" NMIU, 2021 yil.</li> <li>Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil.</li> <li>Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil.</li> <li>Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil.</li> <li>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</li> <li>Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshbo'riyev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, SamDU tahririy-nashriyot bo'limi, 2020.</li> <li>Safarov M.B., Safarov M.M. Veterinariya diagnostikasi va</li> </ol>

	<p>25. Nevrozlar bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.</p> <p>26. Epilepsiya bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.</p> <p>27. Eklampsiya bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.</p> <p>28. Stresslar bilan kasallangan hayvonlarni qabul qilish natijalarining tahlili.</p> <p>29. Nitrat va nitritlar saqlovchi oziqalardan zaharlangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.</p> <p>30. Fotodinamik xususiyatli o'simliklardan zaharlangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fan bo'yicha internet ma'lumotlarini to'plash, ularni o'rganish, o'quv adabiyotlari yordamida referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p><b>V. Ilmiy amaliyot (stajirovka)</b></p> <p>Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.</p> <p><i>Ilmiy amaliyot (Stajirovka):</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;</li> <li>• fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;</li> <li>• amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;</li> <li>• kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.</li> </ul> <p>Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidolari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.</p>
3.	<p><b>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• kavshovchi hayvonlarda ichki yuqumsiz kasalliklarning turlari, tarqalishi, iqtisodiy zarari, sabablari, kechish xususiyatlari, symptom va sindromlari hamda zamonaviy tashxis, davolash va oldini olish usullari haqida <b>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</b></li> <li>• kavshovchi hayvonlarni tekshirishda klinik, gematologik va boshqa laborator tekshirishlar o'tkazish va ularning natijalarini ilmiy tahlil qilishni; kavshovchi hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklarining ilmiy asoslangan davolash va oldini olish usullari bo'yicha ilm-fan yangiliklarini <b>bilishi va</b></li> </ul>

	<p>patologoanatomik o'zgarishlari, tashxisi va qiyosiy tashxisi, davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</p> <p><b>III. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</b></p> <p><b>III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kasal hayvonlarni zamonaviy klinik tekshirish usullari va tartibi.</li> <li>2. Kavshovchi hayvonlarni davolashda ishlatiladigan asosiy terapevtik texnika usullari.</li> <li>3. Davolashda yorug'lik nurlaridan foydalanish. Suniy yorug'lik manbalarini kasal hayvonda qo'llash. Davolashda elektr tokidan foydalanish. Elektr energiyasi manbalarini kasal hayvonda qo'llash.</li> <li>4. Yurak va qon tomirlar tizimi kasalliklarini davolashda zamonaviy kardiodiagnostik va kardiaterapevtik apparatlar, usullar va vositalardan foydalanish. Perikardit bilan kasallangan hayvonni qabul qilish va davolashda rumenotomiya va torakotomiya usullarini qo'llash.</li> <li>5. Miokardit va miokardo bilan kasallangan hayvonlarni qabul qilish va davolashda zamonaviy kardiodiagnostik va kardiaterapevtik apparatlar, usullar va vositalardan foydalanish.</li> <li>6. Nafas tizimi kasalliklarini davolashda zamonaviy pulmanodiagnostik va pulmanoterapevtik apparatlar, usullar va vositalar (O'NSAA, RA, SNA va b.lar)dan foydalanish. Rinit bilan kasallangan hayvonni qabul qilish va davolashda zamonaviy pulmanodiagnostik va pulmanoterapevtik apparatlar, usullar va vositalar (O'NSAA, RA, SNA va b.lar)dan foydalanish.</li> <li>7. Bronxopnevmoniya va Krupoz pnevmoniya bilan kasallangan hayvonni qabul qilish va davolashda zamonaviy pulmanodiagnostik va pulmanoterapevtik apparatlar, usullar va vositalar (O'NSAA, RA, SNA va b.lar)dan foydalanish.</li> <li>8. Plevrit va O'pka emfizemasi bilan kasallangan hayvonlarni qabul qilish va davolashda zamonaviy pulmanodiagnostik va pulmanoterapevtik apparatlar, usullar va vositalar (O'NSAA, RA, SNA va b.lar)dan foydalanish.</li> <li>9. Stomatit va Faringit bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</li> <li>10. Gastroenterit bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</li> <li>11. Oshqozon oldi bo'limlarining gipo- va atoniyasi bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</li> <li>12. Katta qorin timpaniyasi va Travmatik retikulit bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</li> <li>13. Buyrak kasalliklari bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari. Siydik xaltasi kasalliklari bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</li> <li>14. Postgemorragik va Gemolitik kamqonlik kasalligi bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</li> <li>15. Ketoz bilan kasallangan sigirni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.</li> </ol>
--	--



16. Ketonuriya bilan kasallangan sovliqni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

17. Osteodistrofiya bilan kasallangan sigirni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

18. Gipokobaltoz bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

19. Mis yetishmovchiligi bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

20. Endemik bo'qoq bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

21. Retinol yetishmovchiligi bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

22. Askarbin kislotasi yetishmovchiligi bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

23. B guruxi gipovitaminozlari bilan kasallangan hayvonni qabul qilish va davolashning ilmiy asoslari.

24. Trixodesmotoksikoz va Gossipoltoksikoz bilan kasallangan hayvonni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari.

25. Asab tizimi kasalliklarini davolashning ilmiy asoslari.

Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob uskunalar bilan jihozlangan auditoriyada bir guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### **III.II. Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Oshqozon oldi bo'limlari kasalliklarining zamonaviy laborator tashxisi.

2. Jigar kasalliklarining zamonaviy laborator tashxisi.

3. Hayvonlardan olingan qon namunasida eritrotsitlar va leykotsitlar sonini aniqlash va uni diagnostik va prognostik ahamiyati.

4. Hayvonlardan olingan qon namunasida gemoglobin miqdorini aniqlash va uning diagnostik va prognostik ahamiyati.

5. Qon zardobidagi umumiy oqsil miqdorini aniqlash va uning diagnostik va prognostik ahamiyati.

6. Qondagi glyukoza miqdorini aniqlash va uning diagnostik va prognostik ahamiyati.

7. Qondagi keton tanachalari miqdorini aniqlash va uning diagnostik va prognostik ahamiyati.

8. Qon zardobidagi ishqoriy zahiralar miqdorini aniqlash va uning diagnostik va prognostik ahamiyati.

9. Qon zardobidagi umumiy kalsiy va anorganik fosfor miqdorlarini aniqlash va uning diagnostik va prognostik ahamiyati.

10. Qon zardobidagi karotin va retinol miqdorini aniqlash va uning diagnostik va prognostik ahamiyati.

Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan laboratoriya mashg'ulotlarining pasportlari, ularni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari zarur asbob uskunalar va reaktivlar bilan jihozlangan auditoriyalarda bir guruhni ikkiga bo'lib o'tkazilishi lozim.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar turli qishloq xo'jalik va laboratoriya hayvonlari organizmida kechayotgan hayotiy jarayonlarning hayvonlar turiga, jinsiga, zotiga, yashash sharoitiga, mahsuldorligiga va boshqa omillarga qarab, qanday o'zgarishini laboratoriya (morfologik, gemotologik va biokimyoviy) tekshirishlar orqali o'rganadilar. Olingan natijalarni tahlil qilish va baholash malakalariga ega bo'ladilar.

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yurak nuqsonlari bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.

2. Ateroskleroz bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.

3. Qon tomir trombozi bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.

4. Pnevmotoraks bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.

5. Xolesistit va xolangit bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.

6. Tug'ruqdan keyingi gemoglobinuriya bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.

7. Marganes yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

8. Selen yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

9. Selenning ortiqchaligining zamonaviy oldini olish usullari

10. Ftorning yetishmovchiligi.

11. Ftorning ortiqchaligining zamonaviy oldini olish usullari.

12. Borning ortiqchaligining zamonaviy oldini olish usullari

13. Molibdenning ortiqchaligining zamonaviy oldini olish usullari

14. Retinol yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

15. Tokoferol yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

16. Filloxinon yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

17. Askarbin kislotasi yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

18. Tiamin yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

19. Riboflavin yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

20. Nikotin kislotasi yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

21. Piridoksin yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

22. Siankobalamin yetishmovchiligining zamonaviy oldini olish usullari

23. Bosh miya qorinchalarining surunkali istisqosi bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.

24. Meningomiyelit bilan kasallangan hayvonni qabul qilish natijalarining tahlili.